

МАКТАБГАЧА YOSH DAVRIDA BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHIGA XOS XUSUSIYATLAR

XAYRULLAYEVA ZULFIZAR XAMZAYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy rahbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

Annotatsiya: ushbu maqola bilish jarayonlarini, xususan, sezgilarni urganishdan avval shaxs psixikasining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqliklarni anglash, tushunish lozim. Chunki sezgilar idrok jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lsa, idrok insonning hayotiy tajribasi, uning xotirasi bilan bevosita bog'liqdir.

Kalit so'zlar: bilish jarayoni, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat.

Аннотация: эта статья посвящена процессам познания, в частности, перед изучением ощущений необходимо понять и осознать их органическую взаимосвязь со всеми сторонами психики личности. Поскольку ощущения проявляются как составная часть процесса восприятия, восприятие напрямую связано с жизненным опытом человека его памятью.

Ключевые слова: познавательный процесс, ощущение, восприятие, память, воображение, мышление, речь, внимание.

Annotation: this article focuses on cognitive processes: in particular, before studying sensations, it is necessary to understand and realize their organic connection with all aspects of an individual's psyche. Since sensations manifest as a component of the perception process, perception is directly linked to a person's life experience and their memory.

Key words: cognitive process, sensation, perception, memory, imagination, thinking, speech, attention.

Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, tafakkur. Tasavvur, nutq, xayol, irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir – biridan yaxshi farq qila olmaydi.

Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, kiyimlar, rangli halqalar, qutichalar, va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bog'cha yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga rang va shakliga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratini analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan tahlil qilishga o'rgatishimiz lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

- 1.suratning mazmunini tog'ri idrok qilishga,*
- 2.suratning umumiy ko'rinishda har bir tasirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga,*

Tasvirlangan narsalar orasidagi munosabatlarni tog'ri idrok qilishga qaratish kerak. Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyor diqqatning o'sib borishi uchun o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin paytda bolalar diqqatini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yangi faoliyatlar va bolalarning va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari

asosida takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli, bo'lishi bilan karakterlidir. L.s.vigotskiy ta'kidlashicha bola xotirasining rivojlanishida nutqning o'sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va xodisalarni faqat bevosita ko'rish orqali emas balki shu narsa va xodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo'ladi. Bundan tashqari kattalardan so'rab bilish, olish eshitish orqali ham xotiralarni boyitadilar. Ilk bolalik davridagi xotiraning barcha jarayonlari ko'rina boshlaydi.

Masalan: kichik yoshdagi bola dastavval mehanik ravishda yani manosiga tushunmasdan esda olib qilaveradi. Buning o'ziga xos jihati bor, albatta, birinchidan yuqorida aytib o'tganimiz kabi bolalarda turmush tajribasi juda ozgina, ular ko'p narsalarni xali muloqot qilmaydi, lekin hayotda to'qnash kelganligi sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan bolalar nerv sistemasining pastligi yani juda egiluvchanligi kattalarnikidan ham ustunroq bo'ladi. Mana shu sababli bolalarga mexanik eslab qolish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Bolalarda so'zlarning ma'nosiga tushunib eslab qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Masalan, ilk bolalik davridagi bolalar o'zlari yoqtirgan hikoyalarni ma'nosiga to'la tushungan holda eslab qoladilar. Bu hikoyalardagi ayrim qahramonlarni sevadilar, ba'zilar yomon ko'radilar. Umuman, hikoyalarning mazmuni boshqalarga ta'sir qilib, ulada ma'lum tuyg'u hissiyotni uyg'otadi, bu esa bolalarda hikoyaning mazmunini tushuniyotganlaridan darak beradi. Ilk bolalik davrida bolalarda dastlab ixtiyorsiz esga tushirish vujudga keladi. Biror narsani eslash, esga tushirish assotsiatsiya tarzida namoyon bo'ladi. Ular o'zlari ataylab esga tushirmaydilar.

O'yin faoliyatida biror narsani eslash lozim bo'lib qolganda, assotsiatsiya tarzda boshqa shunga o'xshash narsalar ham beixtiyor eslariga tushadi. V.v davidovning e'tirof etishicha, bog'cha yoshidagi bolalar (xususan kichik gurux bolalari) ning faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli tassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydilar va hali maqsad qo'yishni uddasidan chiqar olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz

esda olib qolishning yetarli tasodifiy bir xol emas. Buning o'z sabablari bor. Xar bir tarbiyachi- pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidan tez rivolana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchunchidan esa, bog'cha yoshdagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollar tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o'sha savollarga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi. Kunlarning birida 5 yoshli gulhayo shunday savol berdi: u odam uxlaganda ham nafas oladimi? Buvijon sizning muchalingiz nima?

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanishi, hayron qolishi natijasida turli savollarning tug'ilishi tufali paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqcha berib yuborsalar, sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding? Deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar hech ham savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishimiz zarur. Har qanday tafakkur odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sentiz qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sentiz qilishni tafakkur arayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivolantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilgan sayohatlarda turli nasalarni bir –biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yoshar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zaxirasi 4000 tagacha yetadi. Demak bog'cha yoshi davrida nutqi ham miqdor sifat jihatdan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqini o'sishi oilaning

ma'naviy saviyasiga ko'p jihatdan bog'liq, bundan tashqari bolada bilish jarayonining shakllanishi tashqi muxit bilan ham chambarchas bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Darxaqiqat, barkamol avlodni tarbiyalashda ta'lim tiziminig boshlang'ich bosqichi bo'lmish maktabgacha ta'limning o'rni beqiyosdir. Maktabgacha ta'limda bolaning bilish jarayonlari qolaversa bolaning fikrlash jarayonlari ham shakllantiriladi. Bilm jarayonlaridan biri bo'lmish xotirani shakllantirish maktabgacha yosh davrdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, maktabgacha o'qishga tayyorgarlikda katta rol o'ynaydi. Xuddi shuning uchun ham maktabgacha yosh davridagi xotira turlari tafakkur jarayonlari qolaversa, nutqni shakllantirishni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishanova z. Alimbayeva, sh. Sulaymonov, v. psixologik xizmat, t. 2014 yil.
2. To'xtasinov, d.f, g'afurova, m. A. Abdullayeva, s.h. (2023).
3. Boshlang'ich sinfda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari.
4. Alimova g. "bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" t.. Fan. 2006y. 300b.
5. nishanova z.t. Do'stmuxammedova sh.a. To'laganova sh. Pedagogik psixologiya. Toshkent. Akademnashr. Toshkent 2011y 210b.
6. G'oziyev e, jabborov a. "faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" t. Sharq. 2003y. 280b.
7. Z.m djumayeva- экономика и социум, improving the system of professional competence in educating students based on universal values. "науки образовани" 2023-у. 1-tom 810b.
8. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 5(2), 91-95.

9. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
10. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
11. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. *Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatsiyalar Jurnali*, 1(6), 611-616.